

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2026, № 3 (15)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхуджаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
Сиёсий фанлари доктори (DSc), доцент
Бизнес ва тадбиркорлик Олий мактаби

Гаффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети
Сиддиков Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Бахранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиазарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	Abduvoidova Ruxshonaxon Akramjon qizi SHAYBONIY HUKUMDORLARINING BIRINCHI VA OXIRGI BIRLASHTIRGAN JANG – JOM JANGI	5
2	Abdullayev Akmaljon Hasanboy o‘g‘li MANG‘ITLAR SULOLASI HUKMDORLARINING TASHQI QIYOFASINI TIKLASHDA SUN‘IY IDROKNING IMKONIYATLARI	10
3	Адилов Абдор Анварович ЯНГИ ИҚТИСОДИЙ СИЁСАТ (НЭП) ВА СОВЕТ ДАВЛАТИНИНГ ДИНИЙ СИЁСАТИ ТАРИХИДАН	16
4	Бабаджанов Хасан Бахтиёрлович ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ДАВРИДА ЎЗБЕКИСТОН ЁҒ-МОЙ САНОАТИ	27
5	Бахранов Шерзад Таштурсунович ЎЗБЕКИСТОН ССРДА БУҒДОЙ НАВЛАРИНИ ЎРГАНИШ ВА ИЗЛАНИШ ИШЛАРИ ТУҒРИСИДА	36
6	Габриэльян Софья Ивановна ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ИРАНА ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XX ВЕКА	43
7	Дорошенко Татьяна Ивановна ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МЕЖДУНАРОДНЫХ БЛАГОТВОРИТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ТУРКЕСТАНЕ В ГОДЫ ПЕРВОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ	53
8	Ishanxodjayeva Zamira Raimovna IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEKSTON XOTIN-QIZLARINING IQTISODIY HAYOTDAGI ISHTIROKI (TOSHKENT SHAHRI VA TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA)	62
9	Jabbarova Iqbol Xo‘jamuratovna SUV XO‘JALIGINI BOSHQARISHDA INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI	71
10	Kimsanova Ruxshona Xayrulla qizi SEVINCHIXO‘JAXON VA KELDI MUHAMMADXON DAVRIDA TOSHKENT HUKUMRONLIGI	77
11	Mamataliyeva Arofatxon Yuldashali qizi O‘ZBEK MILLIY OSHXONASI VA PALOV AN‘ANASINING MILLIY BREND SIFATIDA SHAKLLANISHI	85
12	Мусаев Нуриддин Умирзакович РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ҲУКМРОНЛИГИ ДАВРИДА ТУРКИСТОНДА ПАХТАЧИЛИККА ЭЪТИБОРИНИНГ КУЧАЙТИРИЛИШИ	91
13	Musayev Azizbek Baxridinovich MANBALARDA XVII ASR FARG‘ONA VODIYSINING IJTIMOY-SIYOSIY HAYOTI AKS ETISHI	103
14	Nazarov Xumoyun Alisherovich MARKAZIY OSIYO QADIMGI JAMIYATLARI TARAQQIYOTIDA IQLIMIY OMILLAR VA LANDSHAFT TRANSFORMATSIYASI	110
15	Нарбеков Абдикамил Вафаевич ВОПРОСЫ АВТОХТОННОСТИ УЗБЕКОВ В ТУРКЕСТАНЕ	120
16	Normurodov Dilmurod Raxmatullayevich SAMARQAND VILOYATI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI “JIZMONSOY” MFY.DAN TOPGAN TANGALAR XUSUSIDA	126

17	Очилдиев Файзулла Бабакулович XIX АСРНИНГ ИККИНЧИ ЯРМИ – XX АСР БОШЛАРИДА ШАРҚИЙ БУХОРОДА БОШҚАРУВ ТИЗИМИ ТАРИХИДАН	144
18	Palvanov Hikmatmatjon Axmatjonovich XORAZM VONASI ANTIK DAVRI METALL HUNARMANDCHILIGINING BA'ZI XUSUSIYATLARIGA DOIR MULOHAZALAR	152
19	Солиев Махмуджон Махамаджонович ОЗИҚ-ОВҚАТ МАҲСУЛОТЛАРИ ТАҚСИМОТИНИНГ ЁПИҚ ТИЗИМИ ИШЧИЛАРНИ ИЖТИМОЙ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ОМИЛИ СИФАТИДА: ИШЧИ ТАЪМИНОТИ БЎЛИМЛАРИ ФАОЛИЯТИ (1941–1945 йй.)	159
20	Tolibjonov Azizjon Tolibjonovich XORAZMSHOH-ANUSHTEGINIYLAR DAVLATI VA ABBOSIYLAR XALIFALIGI O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR (OTSIZ MAKTUBLARI MISOLIDA)	167
21	Usarov Umid Abdimavlyanovich ROSSIYA IMPERIYA SENATINING A'ZOSI, GRAF K.K. PALEN BOSHCHILIGIDA TAFTISH KOMISSIYASI HISOBOTLARIDA TURKISTON O'LKADAGI YER-SUV MUNOSABATLARINING AKS ETTIRILISHI	174
22	Xakimov Adhambek Ahmadjon o'g'li XIV ASRNING 50-70 YILLARIDA MOVAROUNNAHRDAGI SIYOSIY VAZIYATNI O'RGANISHDA TEMURIYLAR DAVRI MANBALARINING O'RNI	184
23	Xolikulov Axmadjon Boymaxammadovich AMIR HAYDAR HUKMRONLIGI YILLARIDA BUXORO – XIVA MUNOSABATLARI	191
24	Холикулова Шахноза Боймухамматовна ЧИРЧИҚ КИМЁГАРЛАР ШАҲАРЧАСИНИНГ ҚУРИЛИШИ ТАРИХИ	200
25	Юлдашева Шохсанам Юнусали кизи ОСНОВНЫЕ ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ МЕЖПАРЛАМЕНТСКИХ СВЯЗЕЙ УЗБЕКИСТАНА И ТУРЦИИ В 2017-2026 ГОДАХ	207
26	Yunusova Xurshida Erkinovna MAMLAKAT QISHLOQ XO'JALIGIDA ISLOHOTLARNING BOSHLANISHI VA UNING MUAMMOLARI	214

Xakimov A.A.

«O‘zbekiston tarixi» kafedrası o‘qituvchisi, PhD

Farg‘ona davlat universiteti

adhambekhakimov71@gmail.com

XIV ASRNING 50-70 YILLARIDA MOVAROUNNAHRDAGI SIYOSIY VAZIYATNI O‘RGANISHDA TEMURIYLAR DAVRI MANBALARINING O‘RNI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada 1358-1370 yillar Movarounnahrda kechgan hokimiyat uchun kurash jarayonlari, ularning kelib chiqish sabablari hamda oqibatlarini tarixiy manbalar asosida tahlil etilgan. Mazkur yillarda sodir bo‘lgan voqealarga G‘iyosiddin Ali, Nizomiddin Shomiy, Muiniddin Natanziy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Fasih Xavofiy va Ibn Arabshohlarning qarashlari qiyosiy, tanqidiy hamda tarixiy tahlillar asosida o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: Movarounnahr, G‘iyosiddin Ali, Nizomiddin Shomiy, “Zafarnoma”, “Muntaxab ut-tavorixi Muiniy”, Ibn Arabshoh, Muiniddin Natanziy, “Muntaxab ut-tavorixi Muiniy”, Fasih Xavofiy, “Mujmali Fasihiy”, “Ro‘znomai g‘azovoti Hindiston”.

KIRISH

Movarounnahrda mo‘g‘ul xonlari hukmronligining zaiflashuvi va mahalliy beklarning hokimiyatni egallash maqsadida olib borgan kurashlari tarixini tadqiq etishda tarixiy manbalarning o‘rni beqiyos. Ushbu manbalarni qiyosiy tahlil etish orqali Temuriylar davri ma‘naviy -madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotini ilmiy jamoatchilikka yetkazish mumkin. Temuriylar davriga oid manbalar yetarli darajada bo‘lib, ulardan ma‘lum qismlarini fors tilidagi asarlar tashkil qiladi. Quyida keltirilgan manbalar turli vaqt va makonda yozilganligi tufayli ularni tanqidiy, qiyosiy, xronologik metodlari asosida tadqiq qilinib, ilmiy xulosalar taqdim etildi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Amir Temur va temuriylar davriga oid ko‘plab manbalar mavjud bo‘lib ularning ichida ishonchlilaridan dastlabkisi tarixchi G‘iyosiddin Ali tomonidan yozilgan “Ro‘znomai g‘azovoti Hindiston” asari hisoblanadi. Asarda 1399-yilgi Hindiston yurishi haqida so‘z yuritilgan[1:115-116,5-8,76,196,17;]. Asarda o‘rganilayotgan masala bo‘yicha deyarli ma‘lumot uchramaydi. Muarrix Amir Temur Movarounnahrni poytaxt Samarqand atrofida birlashtirganligini qayd etish bilan cheklanib, asosiy e‘tiborini Sohibqironning keyingi davrdagi faoliyatiga qaratgan[2:28].

Mazkur davr tarixini o‘rganishda muhim o‘rin tutgan dastlabki manbalardan biri Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asaridir. Ushbu asar Amir Temurning topshirig‘iga ko‘ra yozilganligi va Sohibqironiga taqdim etilib, ijobiy baho

olganligi bilan ham qimmatlidir. Nizomiddin Shomiyning hayoti va ijodi, jumladan “Zafarnoma” asari haqida manbashunoslikda ayrim tadqiqotlar olib borilgan[3:28-29].

Muallif o‘z asarida tarixiy jarayonlarning batafsil bayonini Movarounnahr amiri Qazag‘onning o‘ldirilishi voqeasi bilan boshlaydi. Amir Abdulloning Movarounnahr amiri mansabiga o‘tishi va uning nizolar natijasida hokimiyatdan chetlashtirilishi, shundan so‘ng mamlakatda boshlanib ketgan boshboshdoqliklar, hududni amirlar tomonidan bo‘lib olinishi voqealari izchillikda bayon qilingan. E‘tiborli jihati shundaki, Movarounnahr viloyatlarida hokimiyatni egallagan amirlarning tarkibi haqidagi ma‘lumotlar, keyingi davrda yozilgan tarixiy manbalar uchun asos bo‘lib xizmat qilgan[4:28]. Mazkur asarda boshqa manbalarda uchramaydigan ayrim ma‘lumotlar mavjud. Jumladan amir Qazag‘onning qotili Qutlug‘ Temurning O‘ranaytiyon qabilasidan ekanligi va uni qo‘lga tushirilishi hamda jazolanishida amir Kayxusravning jonbozlik ko‘rsatgani yuqoridagi fikrimizga dalil bo‘ladi[5:28]. Muiniddin Natanziy Qutlug‘ Temurni “allaqanday bir mo‘g‘ul”, deb ta‘riflash bilan cheklanib, uning jazolanishi xususida ma‘lumot bermagan[6:50]. Sharafuddin Ali Yazdiy Qutlug‘ Temurning oyrat qabilasidan ekanligini ta‘kidlagan holda, uning Qunduz yaqinida qo‘lga olinganligini qayd etadi, ammo bu ishni amalga oshirganlar shaxsiga aniqlik kiritmagan[7:18]. Fasih Xavofiy esa Qutlug‘ Temurning jazolanishi hamda kelib chiqishi haqida so‘z yuritmagan[8:110]. Yozilganlardan ko‘rinadiki, Nizomiddin Shomiyni ushbu masala bo‘yicha bergan ma‘lumoti batafsilligi bilan yaqqol ajralib turadi.

Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asarida Mo‘g‘uliston xoni Tug‘luq Temurxonning Movarounnahr yurishlari, mahalliy beklarning mazkur yurishlarga nisbatan munosabati, Amir Temurning mo‘g‘ul xoni xizmatiga o‘tishdan ko‘zlagan maqsadi, mahalliy beklarning o‘zaro nizolari va Amir Husayn mavqeyining oshib borishi kabi ko‘plab masalalarga aniqlik kiritishga xizmat qiladigan muhim ma‘lumotlar berilgan[9:28-86].

Muiniddin Natanziyning “Muntaxab ut-tavorixi Muiniy” asari 1358–1370-yillar Movarounnahrda hokimiyat uchun kurash tarixini o‘rganishdagi muhim manbalardan biri hisoblanadi. Ushbu asar haqidagi tadqiqotlarda muarrixning hayoti hamda manbaning yozilish tarixi yoritib berilgan[10:3-43].

Asarda amir Qazag‘onning vafotidan so‘ng uning o‘g‘li amir Abdulloning taxtga chiqarilganligi, amir Bayon sulduz tomonidan hokimiyatning tortib olinishi, Tug‘luq Temurxonning Movarounnahr yurishlari, Ilyosxo‘ja hukmronligi vaqti Movarounnahrda yuz bergan siyosiy jarayonlar, amir Husaynning hokimiyatga kelishi, Loy jangi, sarbadorlarning faoliyati, amir Husayn va Amir Temur o‘rtasidagi hokimiyat uchun kurash masalasi Nizomiddin Shomiy va Sharafuddin Ali Yazdiylarning “Zafarnoma”laridan o‘zgacha ruhda hikoya qilingan[11:50-110]. Muallif o‘z asarini umumiy tarix tipida yozishga uringanligi uchun ham voqealar bayonida nisbatan betaraflilik va xolislikni boshqa asarlarga nisbatan kengroq sezishimiz mumkin.

Asarning boshqa tarixiy manbalardan yana bir farqi shundaki, unda Samarqand sarbadorlarining hokimiyatni qo‘lga kiritishi, mo‘g‘ullarga qarshi olib borgan kurashlari, sarbadorlarning asosiy yetakchisi Mavlonzoda ekanligi,

Mavlonzodaning Amir Temur bilan munosabatlari haqidagi ma'lumotlar uchraydi[12:68-72]. Bu omillar ushbu davr tarixini chuqur tahlil etish va asosli ilmiy xulosalar chiqarishda muhim rol o'ynaydi.

“Muntaxab ut-tavorixi Muiniy” asarining turli boblarida keltirilgan ma'lumotlar bir-birini to'ldirishi bilan ham ajralib turadi. Misol uchun muallif, yuqorida aytilganidek, amir Qazag'onning qotilini kitobning avvalida “allaqanday bir mo'g'ul, deya ta'riflagan bo'lsa, manbaning boshqa bobida uni birmuncha to'ldiradi-ki, bu qo'shimcha ma'lumotlar boshqa asarlarda uchramaydi. Muallif Qutlug' Temur hazora amirlaridan birining urug'iga mansub bo'lgani, u amir Qazag'onning xotini Qutlug' Turkon og'oning singlisiga uylanganligi, o'z hazoralariga jabr zulm bo'lgani bois amirlikdan chetlashtirilgani, amir Qazag'on Qutlug' Turkon og'o iltimosiga ham qaramay aybdorning gunohini kechmagani, sababli Qutlug' Temur hukmdor hayotiga suiqasd qilganligini ta'kidlaydi”[13:92-93]. Bu mulohazalardan so'ng, manbadan foydalanilayotganda keltirilgan ma'lumotni asarni boshqa boblaridan ham tanqidiy qiyoslab olish ilmiy xulosa chiqarish uchun muhim hisoblanadi.

Asardagi muhim ma'lumlardan biri amir Abdullohning taqdiri bilan bog'liq. Ko'plab manbalarda amir Bayon Sulduz va amir Hoji Barlos isyonidan so'ng mag'lub bo'lgan amir Abdulloh Movarounnahrni tark etganligi hamda uning keyingi hayoti haqida aniq ma'lumot mavjud emasligi ta'kidlanadi. Ammo Muiniddin Natanziy amir Abdulloh va uning bir necha ukalari qatl etilgani, uning qabri Munk shahrida joylashganligi, Sulton Mahmud ismli ukasi Mo'g'ulistondan panoh topganligini, hamda jiyani amir Husayn esa Qunduz va Bag'longa qochib, u yerni qo'lga kiritib olganligini qayd etadi[14:50]. Mazkur ma'lumotlar boshqa tarixiy manbalarda uchramasligi va tarixiy jarayonlar tadqiqiga katta yordam berishi bilan ham qadrlidir.

Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asari ham tadqiqotning muhim manbalaridan biridir. Muallifning hayoti va ijodiy faoliyati, “Zafarnoma” asarining yozilish tarixi va tarqalishi, tarjimalari haqida manbashunoslik yo'nalishida bir necha ilmiy ishlar amalga oshirilgan[15:116-123].

“Zafarnoma” 1358–1370-yillarda Movarounahrda bo'lib o'tgan o'zaro urushlar va hokimiyat uchun kurash tarixi batafsil yoritilgan manba sifatida ham ahamiyatlidir. Asarning asosiy qismi Amir Qazag'onbekning faoliyatini yoritish bilan boshlangan bo'lsa ham keyingi voqealarning markazida asosan Amir Temur turadi hamda voqelik uning atrofida, Sohibqiron tarixiga u yoki bu darajada bog'liq holda hikoya qilinadi. Bu esa Movarounnahrda hokimiyat uchun kurash masalasini yoritishda mazkur manbadan foydalanish chog'ida muallifning mulohazalariga nisbatan tanqidiy yondashuv zarurligini keltirib chiqaradi.

Manbaning o'rganilayotgan davr uchun muhim bo'lgan tomonlaridan biri shundaki, unda amir Husaynning Bayon Sulduzga qarshi olib borgan kurashlari, Amir Temur va amir Hoji Barlos o'rtasida nizoning paydo bo'lishi va rivojlanib borishi, Amir Temur va amir Hizr Yasavuriy o'rtasida bo'lib o'tgan janglar haqidagi ko'pgina ma'lumotlar boshqa asarlarda keng yoritilmagan[16:22-23]. “Zafarnoma”da keltirilgan Amir Temur va amir Husayn o'rtasida tuzilgan Kumushkand sulhi, bu sulhning tuzilishiga qarshi bo'lgan hamda uni qo'llab

quvvatlagan amirlar tarkibiga oid ma'lumotlar ham muhim ahamiyatga ega[17:56-58]. Bu ma'lumotlar hokimiyat uchun kurashning uzoq yillarga cho'zilib ketishiga nisbatan amirlarning munosabatini aniqlash imkonini ham beradi.

“Zafarnoma”da keltirilgan ma'lumotlardan shu narsa anglashiladiki, Movarounnahrda kechgan hokimiyat uchun o'zaro kurashdan Mo'g'ulistonning ba'zi amirlari o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga harakat qilganlar. Ular ba'zi amirlarga o'z yordamlarini taklif etish orqali mamlakatga kirib kelib, xalqni talon-taroj qilishga va ba'zi hududlarni o'z nazoratlariga kiritishga uringanlar. Bu kabi yordamlar natijasida ma'lum vaqt Xo'jand hokimi Bahrom jaloyir Toshkent va Sayram viloyatlarida o'z ta'sirini o'rnatib olgan bo'lsa, Amir Temur ham amir Husaynga qarshi kurashda ularning yordamidan foydalanishga uringan. Ammo yordamga kelgan mo'g'ullar amir Husayn qo'shinlariga qarshi kurash olib borish o'rniga Jizzax viloyatini talon-taroj qilishga kirishganini ko'rgan Sohibqironning o'zi ularni quvib chiqarishga majbur bo'lganligi Sharafuddin Ali Yazdiy tomonidan alohida ta'kidlanadi. Asardagi ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadi-ki, Movarounnahrda o'zaro urushlar natijasida mo'g'ul amirlari Toshkent viloyati hududlarini o'z nazoratlariga kiritib olishga erishganlar[18:54-56].

Amir Temur va temuriylar davri tarixini o'rganishdagi muhim ilmiy manbalardan biri Fasih Xavofiyning “Mujmali Fasihiy” asari hisoblanadi. Bu asar aniq, qisqa va faktik ma'lumotlarga juda ham boyligi bilan boshqa manbalardan ajralib turadi. Ushbu manba hamda uning muallifi Fasih Xavofiy haqida bir qator ilmiy izlanishlar mavjud[19:2-29].

Asarda o'rganilayotgan davrga oid ko'plab qimmatli ma'lumotlarni uchratish mumkin, jumladan, amir Abdulloh hokimiyatining inqirozga uchrashining sabablari, amir Husaynning Tug'luq Temurxonga qarshi olib borgan kurashlari, Amir Temur va amir Husayn o'rtasidagi kelishmovchiliklar “Loy jangi”dan avval ham bo'lganligi haqidagi ma'lumotlar e'tiborga molikdir[20:110-122].

Amir Temur va temuriylar davri tarixiga oid ma'lumotlarni o'zida jamlagan asarlardan yana biri Ibn Arabshohning “Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur” asaridir. Mazkur manba o'zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etilgan[21:5-63,21].

Ibn Arabshoh o'z asarida Movarounnahrda o'zaro urushlarda yetakchi rol o'ynagan bir qator amirlar faoliyatiga oid qiziqarli ma'lumotlarni keltirgan. Jumladan Amir Temurning amir Husayn bilan tanishuvi va ular o'rtasida qarindoshlik aloqalarining paydo bo'lishi, amir Husayn izmida bo'lgan hududlarning chegaralari, amir Husaynning to'rt vaziri, Amir Temurning Badaxshon hokimlari bilan Husaynga qarshi ittifoq tuzganligi haqidagi ma'lumotlarni boshqa tarixiy manbalar bilan qiyosan tahlil qilib, tanqidiy yondashib tadqiq etish muhimdir[22:5,7,54-64]. Muallifning ma'lum vaqt Movarounnahrda yashaganligi unga mazkur hudud geografiyasi haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lish imkonini bergan [23:5-63].

XULOSA

XIV asrning 60-yillarida Movarounnahrda bo'lib o'tgan tarixiy voqealarni manbalarda yoritilish darajasi turlicha. Sharofuddin Ali Yazdiy va Nizomiddin Shomiy qalamiga mansub “Zafarnoma”larda Movarounnahrda bo'lib o'tgan tarixiy

voqealar shu davrda yozilgan boshqa asarlardan o'zining ishonchliligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ibn Arabshohning "Ajoyib al maqdur..." asari esa Movarounnahr tarixi va Amir Temur tarixi haqida yozilgan asarlardan o'zining tanqidiy ruhda yozilganligi, XIV asrning so'nggi choragida Movarounnahrda markazlashgan davlat tuzgan Amir Temur haqidagi ma'lumotlarni qiyosiy tahlil bilan o'rganishni talab etadi.

FOYDALANILGAN MANBA ADABOYOTLAR RO'YHATI

1. Собрание восточных рукописей Академии наук Республики Узбекистан. История. / Составители: Д.Ю. Юсуова, Р.П. Жалилова. – Т: «Фан», 1998. – С. 115-116 (кейинги ўринларда - Собрание восточных рукописей Академии наук Республики Узбекистан. История.); Семенов А.А. Предисловие переводчика. / Гийасаддин Али. Дневник похода Тимура в Индию. / Пер. с перс., предис. и примеч. А.А.Семенова. – М.: Вост., 1958. – С. 5-8. (кейинги ўринларда – Гийасаддин Али. Дневник.); Аҳмедов Б. Ўзбекистоннинг атоқли тарихшунос олимлари (био библиографик маълумотнома). Тарихшунослар ва тарих муаллимлари учун қўлланма. – Т.: “Чўлпон”, 2003. – Б. 76. (кейинги ўринларда – Аҳмедов Б. Ўзбекистоннинг атоқли тарихшунос олимлари.); Амир Темур жаҳон тарихида. – Б. 196; История Узбекистана. Эпоха Амира Темура и Темуридов. – С. 17.

2. Гийасаддин Али. Дневник... – С. 28.

3. Ўринбоев А. Низомиддин Шомий ва унинг “Зафарнома” асари. // Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Б. 3-11; Аҳмедов Б. Низомиддин Шомий. / Аҳмедов Б. Ўзбекистоннинг атоқли тарихшунос олимлари. – Б. 16-17.; Аҳмедов. Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Б. 165-167; Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. – Б. 107 108; Амир Темур жаҳон тарихида. – Б. 196; История Узбекистана. Эпоха Амир Темура и Темуридов. – С. 17 – 18.

4. Шомий. Зафарнома. – Б. 28-29.

5. Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-тавориhi Муиний. – Б. 50

6. Йаздий. Зафарнома. – Б. 18.

7. Фасих Хавофий. – Б. 110.

8. Каримий Ғулом. “Мунтахаб ут-тавориhi Муиний”да Амир Темур даври тарихининг ёритилиши. / Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-тавориhi Муиний. – Б. 3-43; Бартольд В.В. Определение “анонима Искандара”. // Соч. Т.8. – М.:Наука, 1973. – С. 481-482; Аҳмедов. Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. Б.168-169; Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. – Б. 108-109; Амир Темур жаҳон тарихида. – Б. 199; История Узбекистана. Эпоха Амир Темура и Темуридов. – С. 19.

9. Натанзий. Мунтахаб ут-тавориhi Муиний. – Б. 50-110.

10. Собрание восточных рукописей Академии наук Республики Узбекистан. История. – С. 116-123; Ўринбоев А. Сўзбоши. // Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. Мовароуннахр воқеалари (1360-1370). / Маъсул муҳаррир, сўзбоши муаллифи ва нашрга тайёрловчи А. Ўринбоев, таржимон О. Бўриев –Т.: Камалак, 1994. – Б. 3 14 (кейинги ўринларда – Яздий. Зафарнома.); Аҳмад А., Бобобеков Ҳ. Сўзбоши. // Йаздий. Зафарнома. – Б. 3-

8; Аҳмедов Б. Шарафиддин Али Яздий. / Ўша муаллиф. Ўзбекистоннинг атоқли тарихшунос олимлари. – Б. 66-67; Ўша муаллиф. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Б.174-177; Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. – Б. 112-113; Амир Темур жаҳон тарихида. – Б. 197-198; История Узбекистана. Эпоха Амир Темура и Темуридов. – С. 19-20; Бўриев О. Шарафиддин Али Яздийнинг “Зафарнома” асари ва “Темур тузуклари”. / Темурийлар даври маданий ёдгорликлари. “Темурийлар тарихига оид манбалар: муаммолар, мулоҳазалар” мавзуида ўтказилган Республика илмий анж

11. Юсупова Д.Ю. Фасих Хавафи и его труд Муджмал-и Фасихи. // Фасих Хавафи. Муджмал-и Фасихи. / Пер. предис. примеч. и указатели Д. Ю. Юсуповой. – Т.: Фан, 1980 (кейинги ўринларда – Хавафи. Муджмал-и Фасихи.). – С. 5-29; Амир Темур жаҳон тарихида. – Б. 204; Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Б. 300 301; Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. – Б. 245-246; История Узбекистана. Эпоха Амир Темура и Темуридов. – С. 21.

12. Хавафи. Муджмали-и Фасихи. – С. 110- 122.

13. Уватов У. Сўз боши. // Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур... 1-китоб. – Б. 5-63; ўша муаллиф. “Ажойиб ал мақдур”даги тарихий маълумотлар ва уларни ўрганишга доир Темурийлар даври: Тадқиқотлар ва муаммолар. “Темурийлар даврини ўрганишнинг умумбашарий аҳамияти” мавзуидаги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Тошкент, Темурийлар тарихи давлат музейи. 2013 йил 22 октябрь. 7-китоб. – Т.: “НАВРЎЗ”, 2014. Б. 129-134; Амир Темур жаҳон тарихида. – Б. 201; Аҳмедов Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари. – Б. 141-142; История Узбекистана. Эпоха Амир Темура и Темуридов. – С. 21.

14. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур... . 2-китоб. – Б. 5, 7, 17-18, 21, 54-64.

15. Уватов У. Сўз боши. // Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур... .1-китоб. – Б. 5- 63.

Хакимов А.А.

PhD., преподаватель кафедры «истории Узбекистана»

Ферганский государственный университет

adhambekhakimov71@gmail.com

РОЛЬ ИСТОЧНИКОВ ТИМУРИДСКОЙ ЭПОХИ В ИЗУЧЕНИИ ПОЛИТИЧЕСКОЙ СИТУАЦИИ В МАВЕРАННАХРЕ В 50–70-Е ГОДЫ XIV ВЕКА

АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе исторических источников проанализированы процессы борьбы за власть, происходившие в Мавераннахре в 1358–1370 годах, а также причины их возникновения и последствия. На основе сравнительного, критического и исторического анализа исследованы взгляды Гиясиддина Али, Низамиддина Шами, Муинуддина Натанзи, Шарафуддина

Али Йазди, Фасиха Хавафи и Ибн Арабшаха на события, имевшие место в указанный период.

Ключевые слова: Мавераннахр, Гиясиддин Али, Низамиддин Шами, «Зафар-наме», Муинуддин Натанзи, «Мунтахаб ат-таварих-и Муини», Шарафуддин Али Йазди, Ибн Арабшах, Фасих Хавафи,

Khakimov A.A.

Lecturer at the department of the «History of Uzbekistan»

Fergana State University

adhambekhakimov71@gmail.com

THE ROLE OF TIMURID-ERA SOURCES IN STUDYING THE POLITICAL SITUATION IN MAVERANNAHR DURING THE 1350s–1370s

ABSTRACT

This article analyzes the processes of the struggle for power in Transoxiana in 1358-1370, their causes and consequences based on historical sources. The views of Ghiyosiddin Ali, Nizamiddin Shami, Muiniddin Natanzhi, Sharafiddin Ali Yazdi, Fasih Khawafi and Ibn Arabshah on the events that took place in these years were studied based on comparative, critical and historical analyses.

Key words: Movarounnahr, Ghiyosiddin Ali, Nizamiddin Shami, “Zafarnama”, “Muntakhab ut-tawarikhi Muini”, Ibn Arabshah, Muiniddin Natanzhi, “Muntakhab ut-tawarikhi Muini”, Fasih Khawafi, “Mujmali Fasih”, “Roznomai Ghazavati Hindustan”.